

“Identifikatsiyadan o‘ting va sovg‘alar yutib oling!”AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

1. Ushbu qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga (keyingi o‘rinlarda O‘zR FK deb yuritiladi) muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu qoidalar ishtirok etish shartlarini, g‘olibni aniqlash va Sovrinni topshirish tartibini, shuningdek “ANOR BANK” AJ tomonidan tashkil etilgan “Identifikatsiyadan o‘ting va sovg‘alar yutib oling!” aksiyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa muhim shartlarini tavsiflaydi.
Ushbu Qoidalar “Identifikatsiyadan o‘ting va sovrinlarni qo‘lga kiriting!” aksiyasini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi. Bu aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida "ANOR BANK" AJni ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbirdir.
2. Aksiyaning tashkilotchisi “ANOR BANK” AJ (“ANORBANK” savdo belgisi egasi) hisoblanadi, yuridik manzili: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram 5-tor ko‘chasi, 4Auy; tel.: +998 55 503-00-00.
3. Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas va aksiya ishtirokchilari aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xatarlarga ega emaslar. Aksiyani o‘tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan haq to‘lash bilan bog‘liq emas va aksiyaning sovrin jamg‘armasi faqat tashkilotchi hisobidan shakllantiriladi.
4. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi va unga tegishli bo‘lgan xarajatlar tashkilotchi hisobidan ajratiladi. Sovrin jamg‘armasi 54 (ellik to‘rt) ta yutuqdan iborat bo‘lib, ular Aksiya natijalariga ko‘rashakllantiriladi.
5. Aksiya uch bosqichda o‘tkaziladi:
Bosqichlarni o‘tkazish davri:
 - Birinchi bosqich: 2025-yil 20-fevraldan 2025-yil 20-martgacha.
 - Ikkinchi bosqich: 2025-yil 21-martdan 2025-yil 20-aprelgacha.
 - Uchinchi bosqich: 2025-yil 21-apreldan 2025-yil 20-maygacha.
6. G‘oliblarni aniqlash tadbirining aniq sanasi va vaqti har bir bosqich yakunlari bo‘yicha Tashkilotchining veb saytida va ijtimoiy tarmoqlarida oldindan e‘lon qilinadi.
7. Sovrin jamg‘armasi va yutuqli o‘yin bilan bog‘liq barcha xarajatlar Tashkilotchining mablag‘lari hisobidan shakllantirilib, qoplanadi.
 - 7.1. Birinchi bosqichning sovrin fondi 18 ta (o‘n sakkizta) mukofotdan iborat.
 - iPhone 16 - 1 dona;
 - Samsung smartfonlari - 5 dona;
 - Samsung Tab planshetlari - 5 dona;
 - Yandeks stansiyalari - 5 ta;
 - Robot-changyutgichlar - 2 dona.
 - 7.2. Ikkinchi bosqichning sovrin fondi 18 ta (o‘n sakkizta) mukofotdan iborat.

- iPhone 16 - 1 dona;
- Samsung smartfonlari - 5 dona;
- Samsung Tab planshetlari - 5 dona;
- Yandeks stansiyalari - 5 ta;
- Robot-changyutgichlar - 2 dona.

7.3. Uchinchi bosqichning sovrin fondi 18 ta (o'n sakkizta) mukofotdan iborat.

- iPhone 16 - 1 dona;
- Samsung smartfonlari - 5 dona;
- Samsung Tab planshetlari - 5 dona;
- Yandeks stansiyalari - 5 ta;
- Robot-changyutgichlar - 2 dona.

8. Aksiya g'oliblarini aniqlash yakunlari bo'yicha yo'llanma sovrinini o'tkazish muddati:

Aksiya g'oliblari e'lon qilingan kundan boshlab 90 (to'qson) kalendar kunidan kechiktirmay, sovrin uchun g'olibdan talab qilinadigan barcha ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida tashkilotchi taqdim etadi, ushbu Qoidalarning 10-bandida ko'rsatilgan bo'lib.

Agar Aksiya G'olibi ushbu Qoidalarning 10-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni tashkilotchi taqdim etmasa, u g'alaba qozonish huquqidan mahrum bo'ladi.

9. Aksiyada ishtirok etish shartlari:

Aksiya ishtirokchisi bo'lishni istagan har bir kishi bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarni bajarishi kerak:

- Mijoz 2025-yilning 15-fevralidan 15-mayigacha bo'lgan davrda Anorbank ilovasida masofadan turib identifikatsiyadan o'tishi shart.
- Bir mijoz bir marta g'alaba qozonish imkoniyatiga ega bo'ladi.

10. Aksiyani o'tkazish va aksiya g'oliblarini aniqlash tartibi: Aksiya o'tkaziladigan butun muddat davomida g'oliblarning umumiy soni 54 (ellik to'rt) nafarni tashkil etadi. Aksiya g'oliblarini aniqlash maqsadida, ishtirokchilarga Anorbank ilovasida masofaviy identifikatsiyadan o'tish paytida shaxsiy raqamlar (bundan keyin - "ID") beriladi. Aksiya g'oliblari aniqlanadigan kuni ishtirokchilarning ID raqamlari qur'a tashlash uchun "Random" (tasodifiy sonlar generatori) elektron dasturiga yuklanadi.

Sovrinni olish huquqiga ega bo'lgan aksiyaning g'olibi aksiya ishtirokchisi bo'lib, uning ID si "Random" dasturi tomonidan aksiyani o'tkazish va aksiya g'olibini aniqlash uchun quyidagi algoritm bilan tanlanadi.

Aksiya o'tkazish algoritmi va aksiya g'oliblarini aniqlash bosqichma-bosqich qadamlardan iborat jarayondir:

a) Aksiya G'olibini aniqlash uchun tashkilotchi mazkur Qoidalarning 9-bandida ko'rsatilgan aksiyada ishtirok etish uchun barcha shartlarni bajarganlar ID lari ro'yxatini "Random" dasturiga tushiradi (yuklaydi);

b) Dastur tasodifiy tanlov orqali Tashkilotchining Instagram ijtimoiy tarmog'idagi akkauntida jonli e'fir vaqtida G'oliblar identifikatorini aniqlaydi. Aksiya o'yinining boshlovchisi jonli e'fir davomida, real vaqt rejimida, har bir turning Aksiya g'oliblarini e'lon qilgandan so'ng, "RANDOM.ORG" tasodifiy raqamlar generatori yordamida Aksiya g'olibi deb topilgan g'oliblar bilan bog'lanadi.

c) 1 (bir) Martadan ko'p karta IDsi aniqlangan ishtirokchi qaytadan G'olib deb topilmaydi. Amalga oshirilgan buyurtmalar soni cheklanmagan, Aksiya o'tkazilish sanalarini inobatga olgan holda.

Aksiya davomida aksiya g'olibini aniqlash natijasini oldindan belgilash imkonini beruvchi tartib-tamoyillar va algoritmlar qo'llanilmaydi.

Aksiya davrida ID lar ro'yxatining hisoboti (tushirilishi) dastlabki ma'lumotlar hisoblanib, ularni yuqorida ko'rsatilgan algoritmgaga muvofiq ishlash jarayonida aksiyaning muayyan g'olibini aniqlash uchun faqat bitta yutuqli ID chiqarib beriladi.

Ushbu jarayon 3 (uch) marta bajariladi va bunda:

- random jami 18 tadan 54 nafardan g'olibni aniqlab beradi

11. Aksiya g'oliblariga sovrinni berish tartibi:

Aksiya g'olibi Tashkilotchiga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini (STIR), shaxsni tasdiqlovchi hujjatni (pasport yoki ID-kartani) har qanday qulay tarzda tashkilotchiga topshirishi kerak. Bunda g'olib Tashkilotchi tomonidan barcha soliqlar to'langanidan keyin sovrinni shaxsan oladi.

Sovrin G'olibga bank o'tkazmasi yo'li bilan ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etgandan so'ng va soliqlar to'langanidan keyin taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zR SK 377-modda 5-bandiga muvofiq sovrin mukofotiga (JSHDS) soliq solinadi. Aksiya tartibiga ko'ra, tashkilotchi sovrin uchun barcha xarajatlarni qoplaydi. Shu bilan birga, soliq uchun to'lovni amalga oshiradi.

Tashkilotchi o'zining anorbank.uz manzilidagi internet-saytida va web-ilovasida tegishli axborotni joylashtirish orqali istalgan vaqtda ushbu qoidalarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini bir tomonlama so'zsiz tartibda o'zida saqlab qoladi.

12. Aksiyada ishtirok etish Aksiya ishtirokchisi tomonidan anorbank.uz da joylashtirilgan Qoidalarning to'liq va so'zsiz qabul qilinishini, va shuningdek, tashkilotchi ishtirokchi tomonidan mobil ilovada ro'yxatdan o'tkazishda taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarini ishlatilishiga roziligini anglatadi.

Tashkilotchi bilan turli aloqa vositalari, jumladan (cheklovlarsiz) pochta jo'natmalari, ishtirokchining elektron pochta manziliga (e-mail), mobil telefoniga (SMS-xabarlash orqali) tegishli axborotlarning, shu jumladan tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida bevosita aloqalarni amalga oshirishi mumkin.

Aksiyada ishtirok etishi bilan ishtirokchi o'z xohish-irodasi bilan va o'z manfaatlari yo'lida harakat qilib, Tashkilotchiga (shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularni qayta ishlash uchun shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilgan holda (ularni to'plash, yozish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, uzatish (shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida), Tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini blokirovkalash va yo'q qilish, shu jumladan avtomatizatsiya vositalari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, boshqa dasturiy vositalar, shuningdek, ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash usulda, ham "ANOR BANK" AJ ichki tarmog'i va uning kontragentlari, ham Internet tarmog'i orqali va ham usiz, qayta ishlash uchun o'z roziligini beradi.

Amaldagi qayta ishlash usullari, shu jumladan (cheklovlarsiz), ma'lumotlar bazasini kerakli mezonlarga ko'ra segmentatsiyalashni o'z ichiga oladi. Ushbu rozilik ishtirokchi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan yoki ishtirokchining istalgan shaxsiy ma'lumotlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi, sanasi (O'zR qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarga nisbatan har qanday harakatni amalga oshirishga beriladi.

Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishlashga jalb etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi "ANOR BANK" AJga ishtirokchi tomonidan taqdim etiladi va qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni ishlash O'zR amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Aksiyada ishtirok etib, Aksiya g'olibi deb topilgan ishtirokchi Tashkilotchining anorbank.uz manzili bo'yicha saytida, shu jumladan bosma nashrlar, radio va televideniye dasturlari, shuningdek (cheklovlarsiz) Instagram, Youtube, Facebook kabi Internet-ommaviy axborot vositalari va axborotlarni ommaviy tarqatishning boshqa vositalarida o'z ismini,

familiyasini, otasining ismini va tasvirlarini (rasmlarini), shuningdek, sovrin bilan tushirilgan suratlarini joylashtirishga rozilik beradi.

14. Ushbu qoidalarni buzgan taqdirda, tashkilotchi aksiya ishtirokchisini aksiyada ishtirok etishdan soʻzsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, tashkilotchi tegishli ishtirokchiga nisbatan oʻz harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

15. Aksiya ishtirokchisi oʻzi haqida aniq boʻlmagan va/ yoki notoʻgʻri maʼlumotlar koʻrsatganligi sababli yuzaga kelishi mumkin boʻlgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini toʻla hajmda zimmasiga oladi.

16. Ushbu ragʻbatlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiyani oʻtkazish natijasi yakuniy hisoblanadi va sud tartibida eʼtirozga uchramaydi.

17. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya tashkilotchilariga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli.

18. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsda ushbu aksiya oʻtkazilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan birorta va hech qanday xarajatlarni qoplamaydi.

Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlarida uzilishlar, zararli dasturlarning taʼsirlari, shuningdek “ANOR BANK” AJ ning dasturiy va/yoki apparat majmuasidan ruxsatsiz foydalanish va/yoki ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noinsoflik bilan qilgan xatti-harakatlari oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozimlik darajasida bajarmaganlik uchun javobgar boʻlmaydi.

Aksiya Tashkilotchisi, agar biron sababga koʻra, ushbu aksiya yoki uning biron bir qismi kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyatsiya, ruxsatsiz aralashish, soxtalashtirish, texnik muammolar yoki tashkilotchi va/yoki “ANOR BANK” AJ tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday sababga koʻra aksiyaning bajarilishiga, xavfsizligiga, haloliligiga, yaxlitligiga putur yetkazadigan yoki taʼsir qiladigan boʻlsa, aksiya oʻtkazilishini bir tomonlama bekor qilish yoki toʻxtatib turish huquqiga ega.

19. Tashkilotchining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada qatnashishi mumkin emas.

20. Tashkilotchi anorbank.uz da tegishli maʼlumotni joylashtirish orqali istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, mazkur Qoidalarga oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritish, aksiya oʻtkazilishini toʻxtatish/toʻxtatib turish/bekor qilish huquqini soʻzsiz oʻzida saqlab qoladi.

21. Agar Aksiya Gʻolibi 10 (kalendar) kun ichida Tashkilotchi bilan bogʻlanmasa, uning mukofoti bekor qilinadi.